| Ulashev Xubbim Askarovich                                                                                                   |     |
| KADRLAR SIYOSATI VA DAVLAT XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH HAMDA RIVOJLANTIRISHNING MILLIY MODELINI YARATISH .....         | 659 |
| Turayev Laziz Shokirovich                                                                                                   |     |
| BALIQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMRADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....           | 664 |
| Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH JARAYONIDA SOLIQ TAFOVUTINI (VAT GAP) ANIQLASH VA BAHOLASH USULLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA ADAPTIV YONDASHUV..... | 670 |
| Urazmatov Jonibek Musurmanovich                                                                                                                                            |     |
| HUDUDLAR SOLIQ SALOHİYATI: OMILLAR VA NATIJA.....                                                                                                                          | 675 |
| Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li                                                                                                                                            |     |
| AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIKNI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI INNOVATSION TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMLARI.....                                                               | 680 |
| Ermetov A.I.                                                                                                                                                               |     |
| TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHDA SUPPLY CHAIN CONTROL TOWER KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI.....                                                                   | 686 |
| Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich                                                                                                                                         |     |
| KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA AXBOROT RESURSLARINING BOSHQARUV MODEL VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....                                                    | 691 |
| Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li                                                                                                                                       |     |
| DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA MENTORLIK TIZIMINI TATBIQ QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                                                  | 696 |
| Xurshida Maxmadaminova                                                                                                                                                     |     |
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING HISOB-KITOB VA UNDIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....                                                              | 706 |
| Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li                                                                                                                                       |     |
| ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ УЗБЕКИСТАНА.....                                                 | 715 |
| Наимов Шохрух Шарофиддинович                                                                                                                                               |     |
| KORPORATIV DIVIDEND SIYOSATINING YANGI JIHATLARINI O'RGANISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT MISOLIDA.....                                                                       | 723 |
| Eshev Furqat A'zamovich                                                                                                                                                    |     |
| RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA "AQLLI SHAHAR" BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH: INSONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV.....                                                          | 730 |
| Raximova Madina Shuxrat qizi                                                                                                                                               |     |
| HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI.....                                                                                                     | 737 |
| Umarov Oqil Omiljonovich                                                                                                                                                   |     |
| MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                           | 742 |
| Yuldashev Fozil Turapovich                                                                                                                                                 |     |
| MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA MATEMATIK USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....                                                         | 749 |
| Abdiraimov Abbos Xolmurodovich                                                                                                                                             |     |
| ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....                                                                               | 756 |
| Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи                                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....                                                                               | 762 |
| Ismadiyrov Alisher Abduraxmon o'g'li                                                                                                                                       |     |
| СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....                                                                                       | 766 |
| Жумаев Шавкат ХХХ                                                                                                                                                          |     |
| SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....                                                                               | 769 |
| Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva                                                                                                                                          |     |
| МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....                                                                                         | 776 |
| Каракулов Фарход Зайпудинович                                                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                                    |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:<br>АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ ..... | 782 |
| Салахутдинова Юлдуз Голибовна                                                                                                                      |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING<br>XUSUSIYATLARI .....                                                           | 787 |
| Xalikov Akmal Xolboyevich                                                                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI .....                                                                 | 793 |
| Roziqov Behzod Bahrom o'g'li                                                                                                                       |     |
| RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI .....                                                                     | 799 |
| Siddikov Askar Axrorovich                                                                                                                          |     |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON<br>VA USULLARI .....                                                   | 803 |
| Isakova Naima Ikromjonovna                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI<br>DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....                               | 809 |
| Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi                                                                                                                     |     |
| MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI<br>TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....                         | 813 |
| Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna                                                                                   |     |
| SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH<br>TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                    | 818 |
| Kodirkulov Oybek Turdiboyevich                                                                                                                     |     |
| MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI .....                                                                                  | 826 |
| Nazarov Nazirjon Narzilloevich                                                                                                                     |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING<br>NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....                                 | 830 |
| Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna                                                                                                               |     |



# BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

**Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

tayanch doktranti

E-mail: [abdurazoqovaqutlugnigoor@gmail.com](mailto:abdurazoqovaqutlugnigoor@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari yoritib beriladi. Unda moliyaviy hisobotlarning ahamiyati, ularning tarkibi hamda budjet tashkilotlari faoliyatida tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar tahlilining asosiy usullari hamda ularning budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni baholashdagi ahamiyati ochib beriladi. Mazkur maqolada muallif moliyaviy hisobotlar tahlili budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** budjet hisobi, budjet hisobi standartlari, budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliya yili.

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations of preparing and analyzing financial statements in budget organizations. It scientifically substantiates the importance of financial statements, their structure, and their role in the activities of budget organizations. The article also outlines the main methods of financial statement analysis and their significance in assessing the efficient and targeted use of budget funds. The author emphasizes the practical importance of financial statement analysis in improving the quality of financial reporting, strengthening financial control, and enhancing the process of managerial decision-making in budget organizations.

**Key words:** budgetary accounting, budgetary accounting standards, budget organization, accounting, financial reporting, financial year.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы подготовки и анализа финансовой отчетности в бюджетных организациях, а также научно-теоретически обосновываются важность финансовой отчетности, ее состав и роль в деятельности бюджетных организаций. Раскрываются основные методы анализа финансовой отчетности и их значение для оценки эффективности и целевого использования бюджетных средств. В статье подчеркивается практическая значимость анализа финансовой отчетности в бюджетных организациях для повышения качества финансовой отчетности, усиления финансового контроля и совершенствования процесса принятия управленческих решений.

**Ключевые слова:** бюджетный учет, стандарты бюджетного учета, бюджетная организация, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, финансовый год.

## KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat sektorida buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat sektori moliyaviy hisobotlarini tuzishda xalqaro tajribadan foydalanish va ilg'or standartlarni joriy etish yo'nalishida izlanishlar tobora kuchayib bormoqda.

Yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son



Moliyaviy hisobotlar budget tashkilotlarining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari hamda budget mablag'lari harakati to'g'risida tizimli va ishonchli axborotni shakllantiradi. Ular belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tuziladi hamda davlat moliya nazorati organlari, yuqori turuvchi tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayoni budget intizomini ta'minlash, mablag'larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish, shuningdek, hisobdorlik va shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish esa budget tashkilotlari faoliyatining samaradorligini baholash imkonini beradi. Tahlil jarayonida ajratilgan budget mablag'larining rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga muvofiqligi, xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi hamda resurslardan foydalanish darajasi aniqlanadi. Shuningdek, moliyaviy tahlil orqali mavjud muammolar, kamchiliklar va moliyaviy risklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, mamlakatimiz olimlaridan M. Ostonoqulov budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash hamda budget nazoratini amalga oshirish masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borgan. S. Mehmonov budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan. Shuningdek, A. Ostonoqulov budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari hisobini shakllantirish va takomillashtirish yo'nalishida ilmiy ishlar olib borgan.

S. Mehmonov, I. Qo'ziyev, A. Ostonoqulov, A. Kuliboyev hamda A. Suvonqulovlar o'z ilmiy ishlarida moliyaviy hisobotlarning sifat ko'rsatkichlari va axborotning foydalanuvchilar uchun ahamiyatini alohida ta'kidlab, quyidagicha fikr bildiradilar: "Moliyaviy hisobotlarda keltiriladigan axborotlar foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim. Moliyaviy hisobotda axborotning ochib berilmasligi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi sababli foydalanuvchilar qabul qiladigan iqtisodiy qararlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan axborot muhim hisoblanadi. Belgilangan muddatlarda moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga taqdim etilmaganda o'z foydalilik xususiyatini kamaytiradi"<sup>2</sup>. K. Ibragimov budget tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlar xususiyatlarini quyidagicha yoritib bergan: "Moliyaviy hisobotlarni tuzishda asosiy shartlardan birishuki, hisobot davridagi barcha operatsiyalar hamda pul mablag'lari, asosiy vositalar, moddiy boyliklarning inventarizatsiya qilinishi va hisob-kitoblar natijalarining to'liq aks ettirilishilozim"<sup>3</sup>.

Xorij iqtisodchi olimlaridan Zabibulloh Nejad quyidagicha fikr bildirgan: "Agar rejalashtirish va budgetlashtirish jarayonlarida buxgalteriya hisobining hisoblash (akkumulyatsiya) usuli tanlansa, resurslarni taqsimlash, vaqtni tejash, xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish hamda tashkiliy xavfsizlikni oshirish nuqtai nazaridan muhim o'zgarishlar yuz beradi. Shu bilan birga, to'g'ri yo'lga qo'yilgan buxgalteriya tizimiga ega bo'lish davlat funksiyalarini bajarishda va moliyaviy hisobotlar orqali samaradorlikka erishishda katta ahamiyat kasb etadi"<sup>4</sup>.

Hasanaj P. va Kuqi B. o'z ilmiy ishlarida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish bo'yicha quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish — bu balansning muayyan qismlarining holatini taqqoslash va baholash usuli bo'lib, uning asosida muhim qarorlar qabul qilinadi. Shunday qilib, moliyaviy tahlil — bu korxonaning o'tmishi, buguni va kelajagi bo'yicha balans ko'rsatkichlarini tahlil qilishdir. Tahlil orqali budget mablag'larining qanchalik oqilona va tejamkor sarflanganligi aniqlanadi"<sup>5</sup>.

Dr Viola Eulner o'z ilmiy ishlarida ta'kidlashicha: "Davlat sektori buxgalteriya hisobi hisoblash usulida olib borilsa, moliyaviy hisobotlarda aniqlik, shaffoflik va ochiqlik aks etadi"<sup>6</sup>. Shuningdek, professor Colin Clark hamda Maria Krambia Kapardislar davlat sektorida tuziladigan moliyaviy hisobotlarni quyidagicha yoritishgan: "Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar davlat sektori tashkilotlari uchun muhim sanaladi, ayniqsa, yillik moliyaviy hisobotlar strategik rejaning xulosasi va kelajak uchun rejalarining asosi bo'lib xizmat qiladi"<sup>7</sup>. Bundan tashqari, yana bir iqtisodchi olim Mike Piper o'zining kitobida shunday yozadi: "Moliyaviy hisobotlar orqali kompaniyaning moliyaviy holatini tushunish va investitsiya qarorlarini ongli ravishda qabul qilish mumkin"<sup>8</sup>.

2 S. Mexmonov, I. Qo'ziyev, A. Ostonoqulov, A. Kuliboyev, A. Suvankulov/ Budjethisobining xalqaro standartlari: Darslik; –T.: «Nihol print» OK, 2023. 26-bet.

3 K. Ibragimov, "Budjethisoboti". Darslik. Toshkent "IQTISOD- MOLIYA" 2019.

4 Zabihullah Nejad, V. The need to apply and implement accrual accounting in the public sector and evaluate its accountability and financial reporting for use in the public sector of Iran, Police Development, 16(68), 97-121.

5 Hasanaj, P., & Kuqi, B. (2019). Analysis of financial statements: The importance of financial indicators in enterprise. Journal of Accounting, Finance and Auditing Studies, 5(2), 1–15.

6 Dr. Viola Eulner. /The Position Paper was developed by the IDW's Public Sector and Trendwatch Committees. 2019. 5 p.

7 Colin Clark, Maria Krambia Kapardis. /Public sector financial reporting. Prinexpress LTD. 2010. 13 p.

8 Mike Piper/Accounting made simple. 2013. 20 p.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda ularni tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida davlat sektorida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar (IPSAS) talablari asosida takomillashtirishning amaliy jihatlari, shuningdek, budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni baholash imkoniyatlari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida budget tizimining moliyaviy axborotini shakllantirish talablari davlat sektori uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida belgilangan va ushbu standartlarni joriy etish va qo'llash asosida mamlakatlar milliy buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Xalqaro amaliyotda davlat sektorida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning asosan ikkita usuli qo'llaniladi: kassa usuli va hisoblash usuli<sup>9</sup>. Hozirgi kunda yurtimizda budget hisobini isloh etishning so'nggi bosqichlarida Davlat budgeti daromadlari va xarajatlari hisobi, shuningdek, Davlat maqsadli jamg'armalari hisobi kassa usulida yuritiladigan Davlat sektori moliyaviy hisobotining xalqaro standartlari talablariga muvofiqashtirilmoqda. Shu asosda davlat sektori hisobi va hisobotini bosqichma-bosqich hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga moslashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi hamda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, budget hisobini davlat sektori moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlari bilan muvofiqashtirish maqsadida hozirgi kunda mamlakatimizda budget hisobining 14 ta standarti qabul qilingan. Budget hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi<sup>10</sup>.

O'zbekistonda budget hisobini isloh etish jarayonida davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini (IPSAS) qo'llash yondashuvi belgilandi. Bunda hisoblash usuliga bosqichma-bosqich o'tish yo'li tanlandi<sup>11</sup>. Ushbu bosqichda davlat sektorida hisob va hisobot kassa usulida, ya'ni hisoblash usuli elementlaridan foydalangan holda yuritiladi.

Hisoblash usuli moliyaviy hisobotlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning to'liq bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu usulga ko'ra, xo'jalik operatsiyalari va hodisalar pul mablag'lari to'langan yoki olingan paytda emas, balki ular ro'y bergan zahoti tan olinadi hamda moliyaviy hisobotlarda amalga oshirilgan davrda aks ettiriladi.

Hisoblash tamoyiliga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar nafaqat o'tgan davr voqea-hodisalari, balki tashkilotning kelgusida bajarishi zarur bo'lgan majburiyatlari hamda olishi kutilayotgan iqtisodiy resurslari to'g'risida ham axborot beradi. Natijada foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan muhim va ishonchli axborotni taqdim etish imkoniyati yuzaga keladi. Chunki moliyaviy hisobotlarning asosiy maqsadi resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlarni qabul qilish va ularni baholash jarayonida manfaatdor tomonlarning keng doirasi uchun foydali bo'lgan holda tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari hamda pul oqimlari to'g'risida ma'lumot berishdan iborat<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) — "Budget hisoboti", O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq, budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va budget mablag'lari oluvchilarning budget hisobotini tuzish hamda taqdim etish tartibini belgilaydi.

Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning yillik moliyaviy hisobotlari kelgusi hisobot yilining 1-yanvar holatiga tuziladi. Choraklik moliyaviy hisobotlar esa hisobot yilining 1-aprel, 1-iyul va 1-oktabr holatiga tuziladi.

"UzASBO" dasturiy majmuasiga ulangan budget tashkilotlari choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda, tegishliligiga ko'ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hududiy iqtisodiyot va moliya organlari yoki budget mablag'larini taqsimlovchi tashkilotga taqdim etadi.

Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari mazkur tashkilotlarning rahbari (yoki u vakolat bergan shaxs) hamda bosh buxgalteri tomonidan elektron imzo orqali imzolanadi. Dasturiy majmua orqali budget tashkiloti rahbari va bosh buxgalterning elektron imzosi bilan tasdiqlangan elektron shakldagi moliyaviy hisobotlarni qog'ozga chop etish talab etilmaydi.

Moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda budget

9 Ostonokulov, A. A., & Maxamadaliyeva, M. M. qizi. (2023). DAVLAT Budget IJROSI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLARNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(3 SPECIAL), 180–188.

10 O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. 161-modda.

11 S.Mehmonov, I.Qo'ziyev, A.Ostonaqulova, A.Kuliboyev, A.Suvanqulov "Budget hisobining xalqaro standartlari". Darslik;-T.: "Nihol print". 2023. 14-b.

12 IPSAS 1 Presentation of financial statements. 8-b.



tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni tegishliligiga ko'ra Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda hududiy iqtisodiyot va moliya organlariga qog'oz shaklida, imzolangan holda bir nusxada taqdim etadi. Mazkur hisobotlarda budget tashkilotining muhri, rahbari va bosh buxgaltarning imzolari mavjud bo'lmasa, ular haqiqiy emas deb hisoblanadi<sup>13</sup>.

1-javdal. Budget tashkilotlari tomonidan topshiriladigan yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar tarkibi<sup>14</sup>

| №  | Moliyaviy hisobot nomi                                                                                                              | Moliyaviy hisobot turi |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
| 1  | Balans (1-son shakl)                                                                                                                | Yillik/choraklik       |
| 2  | Moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risida hisobot                                                                                   | Yillik/choraklik       |
| 3  | Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-son shakl)                                                                        | Yillik/choraklik       |
| 4  | Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumot                                                                           | Yillik/choraklik       |
| 5  | Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot                                   | Yillik/choraklik       |
| 6  | Davlat ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot;             | Yillik/choraklik       |
| 7  | Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot | Yillik/choraklik       |
| 8  | Boshqa budgetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot                                                                 | Yillik/choraklik       |
| 9  | Tovar-moddiy zaxiralar va nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobot                                                       | Yillik                 |
| 10 | Budget tashkilotini chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot.                                                 | Yillik/choraklik       |

Tasarrufdagi tashkilotlar uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan, o'zi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga jamlanma moliyaviy hisobotlarni taqdim etadigan muddatlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Tashkilotlar set, shtat va kontingentlar rejalarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllarga muvofiq tuzib, topshiradilar. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilmagan holda moliyaviy hisobotlar shakllariga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Moliyaviy hisobotlar shakllarining manzil qismi quyidagi tartibda to'ldiriladi:

- "Tashkilot" rekvizitida tashkilotning to'liq nomi ko'rsatiladi;
- "Bo'lim, kichik bo'lim, bob" rekvizitida tashkilotning budget tasnifiga muvofiq tashkiliy va vazifa jihatidan bo'linishi (belgilanishi) ko'rsatiladi;
- "Hisobot davri" rekvizitida hisobot tuzilayotgan tegishli davr (yil, chorak) ko'rsatiladi;
- "Budget turi" rekvizitida tashkilot tomonidan O'zbekiston Respublikasi budget tasnifiga muvofiq mablag'lar manbai hamda tashkilot taqdim etadigan hisobot bo'yicha budgetlar darajasi kodlari ko'rsatiladi;
- "O'lchov birligi" rekvizitida hisobot tuzilayotgan o'lchov birligi keltiriladi.

Yillik va choraklik tuziladigan moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xati ilova qilinadi. Ushbu tushuntirish

13 O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) Budget hisoboti"ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i.2019 yil 18 yanvarda 3124 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

14 Ushbu jadval muallif tomonidan mazkur standart ma'lumotlari asosida tayyorlandi: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) Budget hisoboti"ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i.2019 yil 18 yanvarda 3124 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.



xatida budget va budgetdan tashqari mablag'lar ijrosi jarayonida vujudga kelgan asosiy omillar, jumladan, budgetdan ajratilgan mablag'larni iqtisod qilinishining sabablari (tahlillari), debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari hamda davri, agar muddati o'tgan qarzdorlikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, undirish bo'yicha ko'rilgan choralar, qonunchilikka muvofiq tashkilotlarga soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar natijasida bo'shab qolgan mablag'lar va ularning sarflanishi, shuningdek, tashkilot tomonidan hisobot davrida kirim va sarf qilingan qog'oz to'g'risidagi ma'lumotlar, o'g'irlik va kamomadlar haqidagi ma'lumotlar hamda moliyaviy hisobotlar bilan bog'liq boshqa tushuntirishlar keltiriladi.

Bundan tashqari, hisobot yilining birinchi choragi bo'yicha moliyaviy hisobotlarga ilova qilinadigan tushuntirish xatida asosiy vositalar va boshqa aktivlarni (jumladan, tugallanmagan qurilish hamda o'rnatiladigan asbob-uskunalarini) qayta baholash bo'yicha axborotlar ochib beriladi.

Tushuntirish xati tashkilot rahbari yoki uning o'rinbosari (birinchi imzo huquqiga ega shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o'rinbosari (ikkinchi imzo huquqiga ega shaxs) hamda moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvaliga muvofiq reja-iqtisod bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi<sup>15</sup>.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish - bu balansning muayyan qismlarining holatini taqqoslash, baholash usuli bo'lib, uning asosida muhim qarorlar qabul qilinadi. Shunday qilib, moliyaviy tahlil - bu korxonaning o'tmishi, buguni va kelajagi uchun balanslarni tahlil qilishdir. Tahlil orqali budget mablag'larining qanchalik oqilona va tejamkor sarflanganligi aniqlanadi.

Kamomad va muammolarni aniqlash.  
Hisobotlarni tahlil qilish moliyaviy intizom buzilishlari, ortiqcha xarajatlar yoki rejalashtirishdagi xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish  
Tahlil natijalari asosida rahbariyat tomonidan samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish vositasi bo'lib, kelajak strategiyalarini shakllantiradi

Faoliyat natijadorligini oshirish.  
Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali tashkilot faoliyatini yaxshilash bo'yicha aniq choralar belgilanadi.

### 3-rasm. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning zarurligi<sup>16</sup>

Budget tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlar davlatning moliyaviy boshqaruvi hamda budget mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular shaffoflikni ta'minlaydi, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytiradi, rejalashtirish va prognozlash jarayonlarida zarur axborot bazasini shakllantiradi hamda resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotlar orqali tashkilotlar o'z faoliyatini tahlil qilishi, kelgusi davr uchun samarali rejalarni shakllantirishi va moliyaviy intizomni mustahkamlashi mumkin. Shu sababli moliyaviy hisobotlarning to'g'ri, to'liq va aniq tuzilishi, shuningdek, ular asosida amalga oshiriladigan nazorat hamda boshqaruvning samaradorligi davlat budgetining barqarorligi va shaffofligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar tahlilini uch yillik yoki besh yillik davr kesimida taqqoslash asosida olib borish yanada samarali natijalar beradi. Quyida N budget tashkilotining moliyaviy hisobotlari asosida rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakatining 3 yillik tahlili amalga oshiriladi (2-jadval).

15 A.J.Tuychiyev, A.A.Ostonaqulov, K.Sh.Ibragimov, A.S.Tursunov. «Budget hisobi». Darslik. 2018 y. 264 b.

16 Ushbu rasm muallif tomonidan quyidagi ma'lumotlar asosida tayyorlandi: Hasanaj, P., & Kuqi, B. (2019). Analysis of financial statements: The importance of financial indicators in enterprise. Journal of Accounting, Finance and Auditing Studies, 5(2), 1–15. hamda Abdulshakour, S. (2020). Impact of financial statements for financial decision-making. Open Science Journal, 5(2)



2-jadval. N budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlari va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq aniqlanadi hamda ushbu ko'rsatkichlar davrlar kesimida tahlili

| Xarajatlar                             | 1-yil          |                 |           | 2-yil          |                 |           | 3-yil          |                 |           |
|----------------------------------------|----------------|-----------------|-----------|----------------|-----------------|-----------|----------------|-----------------|-----------|
|                                        | Kassa xarajati | Xaqiqiy xarajat | farq      | Kassa xarajati | Xaqiqiy xarajat | farq      | Kassa xarajati | Xaqiqiy xarajat | farq      |
| 1-guruh                                |                |                 |           |                |                 |           |                |                 |           |
| Ish haqi                               | 1 018 575,20   | 1 018 575,20    | 0         | 499 652,70     | 571 433,30      | 71780,6   | 923 992,10     | 924 689,30      | 697,2     |
| Homiladorlik va tug'ruq nafaqasi       | 5 964,90       | 5 964,90        | 0         |                |                 | 0         |                |                 | 0         |
| Stipendiyalar                          |                |                 | 0         | 7 500,00       |                 | -7500     |                |                 | 0         |
| 1-guruh jami                           | 1 024 540,10   | 1 024 540,10    | 0         | 571 433,30     |                 | -571433,3 | 923 992,10     | 924 689,30      | 697,2     |
| 2-guruh                                |                |                 | 0         |                |                 | 0         |                |                 | 0         |
| Ijtimoiy soliq                         | 254 643,80     | 254 643,80      | 0         | 54 527,80      | 51 054,60       | -3473,2   | 9 246,90       | 9 246,90        | 0         |
| 2-guruh jami                           | 254 643,80     | 254 643,80      | 0         | 54 527,80      | 51 054,60       | -3473,2   | 9 246,90       | 9 246,90        | 0         |
| 3-guruh                                |                |                 | 0         |                |                 | 0         |                |                 | 0         |
| 4-guruh                                |                |                 | 0         |                |                 | 0         |                |                 | 0         |
| Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar | 197 939,30     | 2 887,40        | -195051,9 | 400 590,50     | 2 328 237,60    | 1927647,1 | 1 338 542,00   | 1 251 733,70    | -86808,3  |
| Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar   | 236 673,50     | 111217          | -125456,5 | 2250,0         | 2291660,8       | 2289410,8 | 58700          | 1918094,3       | 1859394,3 |
| Ijtimoiy nafaqalar                     | 8 637,50       |                 | -8637,5   |                |                 | 0         | 79800          | 79800           | 0         |
| Boshqa xarajatlar                      |                |                 |           | 2259,3         | 7053,40         | 4794,1    | 1007           | 1412            | 405       |
| Jami xarajatlar                        | 1 713 796,80   | 1 393 288,30    | -320508,5 | 966 780,20     | 5 249 439,70    | 4282659,5 | 2 411 288,00   | 4 184 976,20    | 1773688,2 |

Rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'larining I guruh xarajatlari (41 11 100) bo'yicha 1-yilda kassa va haqiqiy xarajatlar teng bo'lgan. 2-yilda esa haqiqiy xarajatlar kassa xarajatlardan oshib ketgan. 3-yilga kelib, aksincha, kassa xarajatlari haqiqiy xarajatlardan kam bo'lgan, ya'ni hisoblangan ish haqi to'liq to'lab berilmagan. 48 21 400 (stipendiya) muddasiga kelsak, 2-yilda ushbu summa haqiqiy xarajatlarga kiritilmasdan kassa xarajatlari aks ettirilgan. Ya'ni stipendiya hisoblanmasdan turib xarajat sifatida rasmiylashtirilgan.

IV guruh xarajatlari bo'yicha 42 00 000 xarajat muddasida kassa xarajatlari haqiqiy xarajatlardan oshib ketgan. Buning sababi o'tgan yildagi kreditorlik qarzlarning to'langanligi bilan izohlanadi. 2-yilda esa haqiqiy xarajatlar kassa xarajatlardan yuqori bo'lgan, chunki o'tgan yillarda sotib olingan tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) va xizmatlar haqiqiy xarajat sifatida hisobga olingan. 3-yilda kassa xarajatlari haqiqiy xarajatlardan oshib ketgan, bunga sabab sifatida ko'p miqdorda TMZ (jumladan, kanselyariya mollari) sotib olingani va kirim qilangani ko'rsatiladi.



Ushbu tahlildan ko'rinadiki, N budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati 3 yil davomida o'zgarib borgan. Tahlil natijasida buxgalteriya hisobida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tegishli operatsiyalar aniqlanadi hamda kelgusida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur asos shakllanadi.

Masalan, 2-yilda dasturiy majmuada stipendiyaning hisoblanmasdan turib xarajatga chiqarib yuborilishi jiddiy xato hisoblanadi. Shu sababli buxgalteriya xodimi mazkur operatsiyani to'g'rilashi hamda dasturiy majmua bilan ishlash bo'yicha malakaviy bilimlarini oshirishi zarur.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalangan holda tahlilni jadval ko'rinishida olib borish budget tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish, shuningdek, pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rish mumkin.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlar tahlili natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida faol foydalanish zarur. Chunki tahlil natijalariga shunchaki e'tiborsizlik bilan qarash istiqboldagi samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Tahlil jarayoni orqali budget tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ta'minlanadi hamda budget mablag'laridan maqsadli foydalanish darajasi oshadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi yuqori darajadagi huquqiy asosga ega bo'lib, mazkur tizim orqali davlat moliyaviy boshqaruvining ochiqligi, samaradorligi hamda ijtimoiy ishonchligi ta'minlanadi. Bu esa davlat sektorida barqaror moliyaviy boshqaruvni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda, to'g'ri yondashuv orqali takomillashtirish zarur. Hisobot shakllarini to'ldirish tartibini soddalashtirish va ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash hisobot ma'lumotlarining aniqligi hamda ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada moliyaviy hisobdorlikning shaffofligi kuchayadi va xatoliklar kamayadi.

Ikkinchidan, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda zamonaviy va kompleks tahlil usullaridan, jumladan, jadval asosida taqqoslash tahlilidan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Bu budget mablag'lari harakati va ulardan foydalanish samaradorligini yanada chuqur baholash imkonini beradi. Natijada xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyatlari kengayadi.

Uchinchidan, moliyaviy hisobotlar tahlili natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida faol foydalanish zarur. Bu budget tashkilotlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi hamda budget mablag'laridan maqsadli foydalanish darajasini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) "Budget hisoboti"ni tasdiqlash to'g'risida. — 2018-yil 18-dekabr, 157-son; Adliya vazirligida 2019-yil 18-yanvarda ro'yxatdan o'tgan №3124.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". — 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son.
3. IPSAS 1. Presentation of Financial Statements. — International Public Sector Accounting Standards (IPSAS). — IFAC/IPSASB, (PDF). — 8-b.
4. Tuychiyev A.J., Ostonoqulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budget hisobi: darslik. — Toshkent, 2018. — 264 b.
5. Mehmonov S., Qo'ziyev I., Ostonokulov A., Kuliboyev A., Suvankulov A. Budget hisobining xalqaro standartlari: darslik. — Toshkent: "Nihol Print" OK, 2023. — 26 b.
6. Ibragimov K. Budget hisoboti: darslik. — Toshkent: "Iqtisod–Moliya", 2019.
7. Ostonokulov A.A., Maxamadaliyeva M.M. qizi. Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish va taqdim etishning amaliy jihatlari // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. — 2(3, Special). — B. 180–188.
8. Eulner V. (Dr.). The Position Paper / The Position Paper was developed by the IDW's Public Sector and Trendwatch Committees. — 2019. — 5 p.
9. Clark C., Kapardis M.K. Public Sector Financial Reporting. — Prinexpress LTD, 2010. — 13 p.
10. Piper M. Accounting Made Simple: Accounting Explained in 100 Pages or Less. — Simple Subjects, LLC, 2013. — 97 p.
11. Nejad Z. The need to apply and implement accrual accounting in the public sector and evaluate its accountability and financial reporting for use in the public sector of Iran // Police Development. — 2019. — Vol. 16, No. 68. — P. 97–121.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>